

SAYIDIRAXIMOVA Nasiba Sayidmaxamadovna

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi,

O'zbek va xorijiy tillar kafedrası

dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Email: sayidiraximova@gmail.com

OMONIMIYA FENOMENI VA UNING JAHON TILSHUNOSLIGIDA O'RGANILISHI

ФЕНОМЕН ОМОНИМИИ И ЕГО ИНТЕРПРЕТАЦИЯ В МИРОВОЙ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ НАУКЕ

THE PHENOMENON OF HOMONYMY AND ITS INVESTIGATION IN GLOBAL LINGUISTIC SCHOLARSHIP

Annotasiya. Ushbu maqolada omonimiya hodisasining nazariy asoslari, uning til tizimidagi o'rni va funksional xususiyatlari yoritiladi. Jahon tilshunosligida omonimiyaga oid ilmiy qarashlar, xususan, semantik, strukturalistik va kognitiv yo'nalishlar doirasidagi talqinlar tahlil qilinadi. Omonimlarning leksik, grammatik hamda sintaktik sathlarda namoyon bo'lishi ilmiy misollar asosida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, omonimiyaning nutqdagi kommunikativ ahamiyati va uning ma'no anglash jarayonidagi o'rni asoslanadi.

Kalit so'zlar: omonimiya, leksik omonim, grammatik omonim, sintaktik omonim, semantika, kognitiv tilshunoslik, strukturalizm, polisemiya, ma'no, til tizimi.

Аннотация. В данной статье освещаются теоретические основы явления омонимии, его место в языковой системе и функциональные особенности. Анализируются научные взгляды на омонимию в мировой лингвистике, в частности интерпретации в рамках семантического, структуралистского и когнитивного направлений. Рассматривается проявление омонимов на лексическом, грамматическом и синтаксическом уровнях на основе научных примеров. Также обосновывается коммуникативная значимость омонимии в речи и её роль в процессе понимания значения.

Ключевые слова: омонимия, лексический омоним, грамматический омоним, синтаксический омоним, семантика, когнитивная лингвистика, структурализм, полисемия, значение, языковая система.

Annotation. This article examines the theoretical foundations of the phenomenon of homonymy, its place in the language system, and its functional characteristics. It analyzes scholarly perspectives on homonymy in world linguistics, particularly interpretations within semantic, structuralist, and cognitive approaches. The manifestation of homonyms at lexical, grammatical, and syntactic levels is discussed through academic examples. The communicative significance of homonymy in speech and its role in the process of meaning comprehension are also substantiated.

Keywords: homonymy, lexical homonym, grammatical homonym, syntactic homonym, semantics, cognitive linguistics, structuralism, polysemy, meaning, language system.

KIRISH

Til inson tafakkuri va borliqni anglash jarayonining eng muhim vositasidir. U orqali voqelikdagi predmet, hodisa va munosabatlar ifodalanadi, konseptuallashtiriladi va kommunikativ jarayonda qayta ishlanadi. Til tizimining murakkabligi va ko'p qirraliligi esa unda turli semantik munosabatlarning, jumladan, omonimiya hodisasining shakllanishiga zamin yaratadi. Omonimiya shaklan bir xil, ammo ma'no jihatidan farqli bo'lgan til birliklarining mavjudligini anglatadigan lingvistik hodisadir.

Jahon tilshunosligida omonimiya masalasi turli nazariy yo'nalishlar doirasida o'rganib kelingan. Xususan, strukturalistik qarashlarda omonimiya til tizimidagi formal muvofiqlik asosida izohlansa, semantik tadqiqotlarda uning semantik tabiati va polisemiya bilan munosabatiga alohida e'tibor qaratiladi. Kognitiv tilshunoslik esa omonimiyani inson ongidagi konseptual modellar, ma'no tuzilishi va bilimni tashkil etish mexanizmlari bilan bog'liq holda talqin qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, omonimiya nafaqat leksik sathda, balki grammatik va sintaktik tuzilmalarda ham namoyon bo'lib, nutqda ma'no anglash, interpretatsiya va kommunikativ samaradorlikka bevosita ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, sintaktik omonimiya holatlarida mazmunning kontekst orqali aniqlanishi til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni namoyon etadi. Shu nuqtayi nazardan, maqolada omonimiya hodisasining nazariy asoslari, jahon tilshunosligida o'rganilish bosqichlari va turli ilmiy maktablardagi talqinlari tahlil qilinib, uning til tizimi va nutq faoliyatidagi o'rni ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

ASOSIY QISM

Omonimiya fenomeni til hodisasi sifatida uzoq yillar davomida tilshunos olimlarning e'tiborini tortib, o'rganib kelingan. Ilmiy manbalarga tayanga holda aytish mumkinki, omonimiyaga bo'lgan qiziqish antik davrdan boshlanib, Aristotel o'zining "Kategoriyalar" nomli asarida birinchi bo'lib, "bir so'z bilan aytiladigan predmet nomlarida faqat talaffuzdagina bir xillik kuzatiladi. Aslida esa, ular boshqa-boshqa tushunchani ifoda etadi", deya ta'kidlaydi [1]. Bir xil nomlash, ya'ni nomdoshlik haqidagi til falsafasiga oid bunday g'oyalar turli lingvistik an'analarga talqin etilgan holda uzoq yillar davomidagi rivojlanish bosqichini bosib o'tdi. Ayrim zamonaviy tadqiqotchilar "nomdoshlik" tushunchasi hali ham o'z kuchini yo'qotmaganligini e'tirof etadilar. Ularning fikriga ko'ra, omonim va ko'p ma'noli so'zlarni bir-biridan farqlash hamma vaqt ham oson emas. Shu jumladan, A.V.Paribok o'zining "Aristotelning differensial semantikasi" nomli maqolasida antik davrdagi omonimlarga bo'lgan yondashuvni ikkita bir-biridan diferensiatlanadigan (*"Ванечка сломал ручку"*) (eshik tutqichi, sharikli yozuv ruchkasi, jamadon tutqichi, tana a'zosi – qo'lini) va *"Во время Карибского кризиса мир оказался под угрозой"* (yer shari yoki urushning bartaraf etilishi) gaplarni keltirib asoslashga harakat qiladi.

Har ikkala keltirilgan misollar Aristotel tomonidan kiritilgan "nomdosh" tushunchasiga to'g'ri keladi, biroq zamonaviy lingvistik yondashuvga ko'ra, ko'p ma'noli so'z va omonimlarda turli tartibdagi leksik-semantik variantlarini ko'rish mumkin. Ushbu holatda A.V.Paribokning fikriga ko'ra, so'zning ko'p ma'nolilik yoki omonimligi o'rtasida tanlovni amalga oshirishda so'zlovchidan tilga emas, balki borliq haqidagi bilimlarga tayanishni talab etadi. Aristotel ta'rifi bilan berilgan "nomdoshlik" – omonimiya bilan ko'p ma'nolilikni farqlashning eng yaxshi usuli bu tafakkur jarayoni sanaladi [2]. Uning ta'rifi bo'yicha omonimiya masalasi antik davr mutafakkirlari Simplikiy, Boyetsiy, Porfiriylarning ishlarida ham munosabat bildirilib, ulardan Porfiriylar so'zlarning omonimlik masalasiga to'xtalib, so'zlarning xato qo'llanishi omonimiyani hosil qiladi, deya belgilaydi.

S.V.Garinning fikriga ko'ra, Porfiriylar predmet va obyektlarning ikki tomonlama semantik mantiqiy-lingvistik mohiyati, ya'ni ularning

muayyan nom va tavsifga ega ekanligi haqidagi talqiniga tayanadi [3]. Porfiriylar, bir xil nomga ega bo'lgan, biroq mohiyatiga ko'ra turli ma'nolarni ifoda etadigan so'zlarni omonimlar deb qaraydi. U omonimlarning turlariga to'xtalib, ularning kognitiv-ontologik differensiatlanishiga tayanib, omonimlarning ikki turi: a) nutqda tasodifan yuzaga keladigan omonimlar; b) analogiyaga ko'ra tashqi o'xshashligi va geneologik asosi bir predmetni ifodalashi jihatdan tafakkur faoliyatiga asoslangan omonimlarni farqlaydi [4]. Grafik, ya'ni yozilishi jihatdan mos keluvchi so'z konstruksiyalarning mazmunini matnlarda farqlash muammosi bilan antik davr mutafakkiri Prodik ham shug'ullanib, boshqa sofistlardan farqli ravishda u tilga va so'zlarning nominativ funksiyasiga ham alohida e'tibor qaratadi [5].

Omonimiya masalasiga bo'lgan qiziqish XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib, yanada kuchaydi. Sababi bu davrda fransuz tilshunoslari Sh.Bigo [5], N.Balli [9], M.Breal [6], G.Dyubre [5], L.Granje [11], K.Nyurop [12], J.Jilyeron [7] singari olimlarning omonimiya masalasini o'rganishga bag'ishlangan ko'plab asarlari yuzaga keldi. Ularda "omonim" va "omonimiya" terminlari chegaralanib, aniq ta'riflari berilib, bir so'zning tovush jihatidan tasodifan o'xshab qolishiga ko'ra omonimlarning turlari ajratildi, omonimiya va polisemiya hodisalari o'rtasidagi farqlar ko'rsatilib, ularning chegaralari belgilandi.

Tilshunos olimlar L.I.Prenko va Z.K.Kudanovalarning belgilashicha, fransuz tilshunosligida omonimiya tushunchasi chegarasini belgilashda ikki xil qarash mavjud. Birinchi qarashga ko'ra, omonimlar – bir so'zning dastlab boshida, shakli har xil bo'lgan, biroq uning tarixiy rivojlanishi va turli fonetik jarayonlar ta'sirida bir so'zning talaffuzdagi o'xshash bo'lib qolishi nazarda tutiladi. Ikkinchi qarashga ko'ra esa, omonimlar tushunchasi ostida "tarixan boshqa-boshqa bo'lgan, biroq talaffuzda teng keluvchi, faqat tashqi qobig'i bilan o'xshash, biroq ikki va undan ortiq turli ma'nolarni ifoda etuvchi so'zlar" nazarda tutiladi [14,15]. Chex tilshunosi O.Duxachyok yuqoridagi tilshunoslarning fikrlari asosida esa o'z ishlarida fransuz tilidagi omonimlarning quyidagi: 1. Leksik (barcha grammatik kategoriyalarga tegishli, biroq turli leksik ma'no anglatuvchi bir so'z turkumiga oid) omonimlar. 2. Semantik (polisemiya xarakteridagi so'z ma'nosining uzilishi natijasida paydo bo'lgan)

omonimlar. 3. Etimologik (turli soʻzlardan shakllangan) omonimlar. 5. Grammatik (turli soʻz turkumlariga tegishli yoki alohida grammatik kategoriyalar bilan farqlanuvchi) omonimlar. 6. Leksik-grammatik (konversiya yordamida shakllanuvchi) omonimlarga ajratadi [14,15].

Omonimiya til rivojlanishining alohida omili, yaʼni faktori sifatida germaniya tilshunoslarining ham diqqat markazida boʻlgan. XIX asrning boshlarida nemis tilida omonimlar lugʻatlari paydo boʻla boshlagan. Biroq nemis tilshunos olimi E.Emanning taʼkidlashicha, dastlabki yaratilgan omonimlar lugʻatlari talaffuzi va maʼnosi bir xil boʻlgan kam sonli omonim soʻzlardan iborat soʻzlarning roʻyxatidan iborat boʻlib, juda sodda tuzilgan [16]. 1752-yilda K.Papa, 1810-yilda G.N.Berman [16] lar tomonidan tuzilgan lugʻatlar esa, avvalgilaridan farqli ravishda ancha mazmuniligi bilan tubdan farqlanadi, biroq ular ham deyarli sistemalashtirilmagan ishlar sifatida omonimlarni tavsifiga qaratilgani bilan bir-biriga oʻxshaydi. Ularda omonimlar tarixi va psixologik tomonlariga mutlaqo eʼtibor qaratilmaydi. Shuningdek, E.Eman oʻz ishlarida omonimiya hodisasini oʻrganishda tilning “ mantiqiy – tafakkur” jihatigagina emas, balki “nutqda omonimlar bilan bogʻliq noqulayliklarning kelib chiqishi mumkin boʻlgan emotsional roliga ham eʼtibor qaratilishi muhim ekanligini taʼkidlaydi [16, 124]. Nemis tilida leksik omonimlardan tashqari dialektal omonimlar masalasi ham tadqiq etilgan boʻlib, leksik omonimlarni aniqlash va tavsiflash ularning paydo boʻlishidagi tarixiy-fonetik, etnomadaniy va janrovii-tipologik xususiyatlari sharqiy-german tillari dialekti asosida tahlilga tortilgan.

Omonimiya masalasi Praga lingvistik toʻgaragi vakillarining ham eʼtiborida boʻlib, toʻgarak asoschilaridan biri Bogumil Trnkaning “Omonimiyaning belgilash” nomli maqolasida omonimiya va polisemiyaning sinxron va diaxron planda hamda ularning stilistik imkoniyatlari oʻrganilishga harakat qilinadi. U oʻz tadqiqot ishlarida leksik va morfologik omonimlarni ajratib, omonimlarning kelib chiqishidan qatʼiy nazar, ularni: toʻliq (barcha shakllarda omonimlikka ega boʻlgan) omonimlar va notoʻliq (barcha shakllarda omonimlik hosil qilmaydigan) omonimlarga ajratish kerakligini belgilaydi. Bu bilan u omonimlarning gibrid bir tipi, yaʼni faqat chetdan oʻzlashgan soʻzlar bilangina talaffuzda teng kelib qolgan omonim soʻzlarni ham ajratadi.

B.Trnkaning fikriga koʻra, ayrim tillar, xususan, turk tilida mavjud omonimlarning barchasi gibrid omonimlar sanaladi [17].

Omonimlar muammosi va ularni polisemiya hodisasidan chegaralash masalasi boʻyicha fin olimlari ham shugʻullangan boʻlib, ularning ishlarida ushbu hodisalar aniq chegara mezonlari belgilanmaganligini koʻrish mumkin. Ularda omonimlarning ogʻzaki nutq bilan bogʻliq jihatlariga eʼtibor qaratildi va faqat yozma nutqda grafik jihatdan teng keluvchi omograflar farqlandi. Polyak tilshunosi K.Voyan esa oʻz ishlarida fin tilida omonimlarning paydo boʻlishi haqida oʻziga xos fikr bildirib, omonimiya hodisasi alohida tillarning oʻzaro taʼsiri, masalan, bir tildan soʻz oʻzlashtirish jarayoni bilan bogʻliq deb taʼkidlab, istalgan etnotildagi omonimlar paydo boʻlishining 4 asosiy qonuniyatini belgilaydi. Xususan:

1. Tildagi A koʻrinishidagi, yaʼni shakli boʻyicha oʻzaro idient, biroq maʼnosi bilan farqlanuvchi soʻzlar tarixiy bosqichda intellektual jihatdan izolyasiyalangan til egalari A guruhlarida spontan holda shakllanadi.

2. A koʻrinishidagi til V koʻrinishidagi tildan soʻz oʻzlashtiradi, natijada oʻzlashtirilgan soʻz A koʻrinishdagi soʻz bilan teng kelib qoladi.

3. A koʻrinishidagi til V va S koʻrinishdagi tildan faqat tashqi oʻxshash, biroq turli maʼnolarni anglatuvchi soʻzlarni oʻzlashtiradi.

4. A koʻrinishidagi til V koʻrinishidagi tildan oʻzaro qardosh boʻlgan V va S koʻrinishdagi tillarga oʻzlashgan omonimlarni oʻzlashtiradi.

Koʻrinadiki, fin tilining tarixiy rivojlanishi mosolida tilshunos K.Voyan tillardan soʻz oʻzlashtirish masalasini koʻrib chiqqan holda, omonimlarning yuzaga kelishi nafaqat zamonaviy tilshunoslikda, balki qadimgi tillarni oʻrganganda ham kuzatilishi mumkin [18].

Zamonaviy polyak tilida omonimiyaning nazariy masalalari leksikografiya hamda semantikaga bagʻishlangan tadqiqotlar doirasida ancha keng tahlil qilinganligini, shuningdek, lingvistik ensiklopediya va terminologik lugʻatlarida berilganligini koʻrish mumkin. Omonimiya masalasini oʻrganishda polyak tadqiqotchilari orasida D.Batler ancha taniqli sanaladi. Sababi polyak tilshunosligida mazkur hodisani oʻrganishda D.Batler fikriga koʻra ikki boshqa-boshqa maʼnoni anglatuvchi soʻzning shakli jihatdan tasodifiy oʻxshash boʻlishi nazarda tutilgan tushunchaviy apparatiga asoslaniladi [19].

Polyak tilida omonimiya tasnifi, bir oz boshqacharoq berilib, olimlar omonimiya tasnifida turli ifodalardagi tasodifiy ma'no o'xshashligi kuzatiluvchi matniy omonimiyani (omofon, omograf, omoshakllar) va qisman omonimlik sistem omonimlar va noto'liq (asos va qo'shimchadagi) omonimlarga qarama-qarshi qo'yilganligi kuzatiladi. Keyinchalik matniy omonimiya hodisasi tilshunos olim R.Gjgorchikova tomonidan yanada rivojlantirildi. U o'z ishlarida omonimiyani kishilarning "fizik" holati bilan bog'liq xarakterga egaligi, shu sababli uni anoqlashda "matn tilshunosligida" kontekstda qaralishi lozimligini ta'kidlaydi. Omonimiyaning mazkur tipiga D.Battler sistem xarakterga ega bo'lgan flektiv shakldagi aniq matn tarkibida emas, balki lug'atlarda berilgan omonimlarni o'rganish lozim deb, u flektiv shakldagi omonimiyani ham nazarda tutadi [19].

Omonimiya doirasidagi yetakchi ishlar sifatida Z.Tribuletsning ishlarini alohida ta'kidlash lozim. U matematik lingvistika metodi va tilning ko'plab nazariy modellarini konseptual apparatiga tayanib, omonimik ifodalarni farqlashning sintktik modellarini taklif qildi [19]. U o'zining lingvistik belgilarning bilaterialligi g'oyasiga asoslangan omonimiya hodisasini tavsiflashning bunday yangicha – konseptual apparatini taklif etish bilan Z.Salonining fikrlarini yanada rivojlantirdi. Z.Saloni omonimiya tushunchasi ostida nutqiy vaziyatga bog'liq ravishda ikki va undan ortiq tomon – mazmunga ega bo'lgan aynan bir xil matn ko'rinishidagi til birliklarini tushunishni taklif etadi. Ya'ni ikki omonimik belgini quyidagi tarzda qayd etish mumkin: (a, b1) va (a, b2). Omonimlar – bu matniy ko'rsatkichi aynan bir so'z orqali ifoda etiladigan so'z shakllari sanaladi [19].

Omonimiya hodisasi ingliz tilshunosligida ham alohida o'ringa ega bo'lib, ingliz unda ham ushbu masala an'anaviy masalalar, ya'ni omonimiya chegarasini belgilash, omonimlarni tasniflash va paydo bo'lish asosini aniqlash, ushbu hodisaning tasodifiyligi va qonuniyati muammaosini o'rganish bilan bog'liq ravishda olib borilganligini ko'rish mumkin. Ingliz tilshunosligida ushbu masala bilan J.Layonz, R.S.Bridjes, L.V.Malaxovskiy, I.S.Tishler, F.I.Mauler, A.Y.Shaykevich va boshqalar shug'ullandilar [19].

Venger-britan tilshunos olimi S.Ulmann birinchilardan bo'lib omonimiyani til universalisasi masalasi sifatida o'rgandi. U o'z tadqiqotlarida

omonimiya absolyut universalisasi sanalmaydi, (sababi tilni omonimlarsiz ham tasavvur etish mumkin, ya'ni "uni faqat empirik xarakterdagi tadqiqotlar yordamidagina aniqlash mumkin") balki statik hodisa sanaladi, deb tahmin qiladi. Shuningdek, u ingliz tilida omonimlarning differentsiatsiylanishida orfografiya juda katta rol o'ynashini ham belgilaydi [20]. Uning fikricha, polisemantik so'zlar va omonimlarni chegaralashda matn asosiy vositasi sanaladi.

XULOSA

Turli tillarda omonimiya hodisasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, turli an'anaviy tilshunoslik namoyondalarining omonimiya masalasidagi munozarasining asosiy predmeti omonimiyaning semantik chegaralarini belgilash va omonimiya tushunchasining universalizatsiyasini aniqlashdan iborat bo'ldi. E'tibor berilsa, yevropa tilshunoslari tomonidan omonimiya tushunchasi va omonimiyaning turli ko'rinishlari tasnifiga tegishli yagona fikr mavjud emas. Omonimiyaning paydo bo'lish yo'llari va uning tasodifiy yoki til qonuniyati bilan bog'liq xarakteri, ko'p qirrali lingvistik hodisa sifatida sintaksik sathda ham namoyon bo'lishi, kognitiv asoslari kabi masalalar hali hanuz o'z yechimini topgan emas. Turli davlatlardagi omonimiya bilan shug'ullangan tilshunoslarning diqqat markazida omonimlarning amaliy xarakterini: omonimiya va polisemiyaning chegaralash, omonimlarning lug'atlarda aks etishi masalasi bo'ldi.

Yevropa tilshunosligida umumqabul qilingan yondashuvlarga qo'yidagilarni kiritish mumkin: 1) omonimiyani tildagi shakl va mazmun munosabati muammosi masalasi sifatida qarash; 2) tilda omonimlarning mavjudligi tilning tizim sifatidagi sistemasiga xosligidan kelib chiqqan holda, omonimiyani til universalizatsiyasi sifatida qarash; 3) mazmun plani va ifoda planiga ko'ra omonimlar: leksik, grammatik, leksiko-grammatik, to'liq va noto'liq omonimlarga bo'linadi.

Xulosa qilib aytganda, omonimiya doirasidagi qator tadqiqotlar an'anaviy tilshunoslik nuqtayi nazaridan quyidagicha chegaralanishini belgilash mumkin: fin tilshunosligida omonimlarning paydo bo'lishi qonuniyatini so'z o'zlashtirish yo'li orqali deb belgilanishi; chex tilshunosligida omonimlarning stilistika sohasidagi rolini

o'rganishga e'tiborning qaratilishi; nemis tilshunosligida omonimiya hodisasini o'rganishda ularning emotsionallik darajasi va dialektal omonimiya masalasini tadqiq etilganligi; polyak tilshunosligida matniy va sistemaviy omonimiyani chegaralash; omonimiyani o'rganishdagi matematik lingvistikaning imkoniyatlarini yoritib berish.

Yuqorida qayd etilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, an'anaviy tilshunoslik doirasida omonimiya hodisasi shunchaki tasodifiy lisoniy o'xshashlik emas, balki til tizimining ichki qonuniyatlari, etimologik taraqqiyoti va dialektal xususiyatlari bilan bog'liq bo'lgan murakkab jarayondir. Shuningdek, turli milliy tilshunoslik maktablarining yondashuvlaridagi farqlar omonimiyani o'rganishning ko'p qirraliligini, ya'ni uning semantik, stilistik, pragmatik va kognitiv jihatlarini o'z ichiga olishini isbotlaydi.

FOYDALANILADIGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Аристотель. Сочинения в четырех томах. Том 2. – М.: Мысль, 1978. – С. 51.
2. Парибок А.В. Аристотелевская дифференциальная семантика // Сборник: Структура текста. – М.: Наука, 1980. – С. 229-241.
3. Гарин С.В. Из истории логики. Семантика омонимии в логике Порфирия. [Электронный ресурс] // Studia Humanitatis: международ. электронный науч. журнал. – Режим доступа: <http://st-hum.ru/content/grain-sv-iz-istorii-logiki-semantika-omonimii-v-logike-porfiriya>.
4. Порфирий. Введение к Категориям Аристотеля (Isagoge) // Аристотель. Категории. – М.: ГСЭИ, 1939.
5. Лосев А. Ф. История античной эстетики. Софисты. Сократ. Платон. – М.: Искусство, 1969. – С. 32-36.
6. Bréal M. Essai de sémantique: science des significations. – Paris: Hachette, 1897.
7. Gillieron J. Pathologie et thérapeutique verbales. – Paris: Champion, 1921.
8. Nyrop K. Grammaire historique de la langue française. Vol. 4: Sémantique. – Copenhagen, 1913.
9. Bally Ch. Précis de stylistique. – Genève, 1905.
10. Simplicius. On Aristotle Categories 1-4. (Translated by Michael Chase). – Bloomsbury Academic, 2014.
11. Dubreil G. Étude sur l'homonymie // Revue des langues romanes. – Montpellier, 1882. – № 21. – P. 5-30.
12. Granger L. Dictionnaire des homonymes de la langue française. – Paris: Librairie Larousse, 1894.
13. Боэций. Комментарий к категориям Аристотеля // Утешение философией и другие трактаты. – М.: Наука, 1990.
14. Карпов В.И. К вопросу изучения лексической омонимии в зонах взаимодействия языка и диалектов // Филологические науки. Вопросы теории и практики. – М., 2017. – №10/76. – С. 98-101.
15. Куданова З.К. Омонимия и полисемия при феминизации наименований профессий и должностей в современном французском языке (на материале французских СМИ) // Вестник ДГУ. – М., 2018. – С.79-88.
16. Эман Э. Об омонимии в немецком языке // Вопросы языкознания. – М., 1960. – №5. – С.117-124.
17. Трнка Б. Замечание об омонимии // Пражский лингвистический кружок. Сб.ст. под ред. Н.А.Кондрашева. – М.: Прогресс, 1967. – С.272-276.
18. Wojan K. The lexical homonymy of the Finnish language. – Budapest: Uralisztikai Tanulmányok 17, 2007. – P. 348-358.
19. Awramiuk E. Systemowość polskiej homonimii miedzyparadygmatycznej. – Białystok: Wydawnictwo Uniwersytetu w Białymstoku, 1999. – P. 242.
20. Ульманн С. Семантические универсалии // Новое в лингвистике. – М., 1970. – Вып. V (Языковые универсалии). – С. 250-299.